

XONA GULLARINING VEGETATIV KO'PAYISHI

Inomjonov Olloyorxon Faxriddin o'g'li

Toshkent shahar Abu Ali Ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan

maktabning 7- "A" sinf o'quvchisi

Ilmiy raxbari: Saidxonova Shaxnoza Faxriddinovna

Annotatsiya: Ushbu maqola xona gullarining inson hayotidagi o'rni, salomatligiga ta'siri haqida xabar beradi, shuningdek xona gullarini o'stirish qoidalari haqida malumotlar berilgan. Xona sharoitida gullarni o'stirish qachon va qanday boshlanganini aytish qiyin. Shunday bo'lsada yashash joyi va uning atrofi har doim bahordagidek ko'm - ko'k bo'lishini istagan, qolaversa, hayotdan go'zallik izlagan kishilar niyatidan boshlangan deyish mumkin. Bundan tashqari, yangi geografik maskanlarning ochilishi tabiat, o'simlik dunyosini o'rganish ularning dunyo bo'y lab keng tarqalishiga sabab bo'ldi. Yer sharining barcha hududlaridan keltirilgan turli manzarali gullar madaniylashtirilib, xonadonlarda o'stirilib, parvarish qilindi.

Kalit so'zlar: Aloe, amarillis, balzamin, begoniya, geran, giatsint, gortenziya, drasena, kaktus, xitoy atirguli, xonaki limon, mirt, oleandr, palma, primula, atirgul, tradeskansiya, binafshagullar (fialka), siklamen, sinerariya, siperus, azaliya, asparagus, aspidistra, aukuba, gloksiniya, jasmin, kalseolyariya, ligistrum, monstera, paporotnik, pelargoniya, solyanum, fatsiya, fikus.

KIRISH

Vegetativ ko'payish - vegetativ organlar yoki ularning bir qismidan yangi organizm paydo bo'lishi; ko'p hujayralilar uchun xos. Vegetativ ko'payishda ham bir hujayralilarning jinsiy ko'payishi singari klonlar — genetik jihatdan bir xiddagi individlar guruhi vujudga keladi. O'simliklarda V. k. tallom ixtisoslashmagan qismining ajralishi (ko'pchilik suv o'tlari va yuksak zamburug'lar) yoki tallomdan ixtisoslashgan qismlar ajralishi (harasimon suv o'tlarida tuganaklar, sfatsellyariya suv o'tida bachki kurtaklar, lishayniklarda sorediyalar va izidiyalar, zamburug'larda sporalar) orqali ko'payishdir. Yuksak o'simliklarda V. k. regeneratsiya qobiliyatidan, moxsimonlarda esa ona organizmning bir necha bo'lakka bo'linishidan iborat. Plaunlar, ochiq urug'li yoki gulli o'simliklarda V. k. yer ustki o'rmalovchi yoki yotib o'suvchi poya qismining bir bo'lagi hisobiga amalga oshadi. Ixtisoslashgan V. k. rivojlanayottan yosh organizmlar va ularning boshlang'ichi (tushib ketadigan kurtaklar, barg yoki ildizdagi qo'shimcha kurtaklar), novdadidan hosil bo'ladigan ixtisoslashgan qismlar (tuganak, piyozboshi, bachki ildizlar) orqali sodir bo'ladi. V. k. har yili yoki ikki yilda bir marta, ko'p yillik o'simliklarda esa bir necha yilda bir marta ro'y beradi. V. k. vegetativ organ hujayralarining ko'payib ketishi va paydo bo'ladigan

yangi individlarning yangi maydonni egallashidan iborat. V. k. xiliga qarab hosil bo‘ladigan har xil tipdagi klonlardan o‘simliklar seleksiyasida foydalaniadi.

Tabiat mo‘jizasi bo‘lgan gullarning turlari va xillari juda ko‘p. Xonaki gullarni o‘sirish, parvarish qilish va ularning keng tarqalgan ayrim turlari xususida to‘xtalib o‘tamiz. Xonadonlarda gul parvarish qilmoqchi bo‘lgan kishi gullarning qanday sharoitda o‘sganidan xabardor bo‘lishi uchun ham uning qayerdan keltirilganini — vatanini bilishi lozim. O‘simlik haqidagi ma’lumotlar, bilimlar asosida esa ularning umumiylarini parvarishi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yiladi, kerak vaqtida kerakli miqdorda sug‘oriladi, issiq-sovuqqa, chidamli-chidamsiz ekaniga qarab ma’lum ajratilgan xonalarga joylashtiriladi, gulning tabiatiga muvofiq keladigan tuproqli aralashmalar tayyorlanadi va h.k. Xonaki gullar, odatda, deraza tokchalarida, gul tuvaklari qo‘yiladigan maxsus moslamalarda turadi. Gullar uy havosini tozalovchi vazifasini bajarish bilan birga, kishi ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish xususiyatiga ham ega. Axir tashqarida yomg‘ir, qor yog‘ib turganida xonada yashnab turgan gullar kishi bahri dilini ochadi-da. Shuning uchun ham gullarni parvarish qiluvchi kishilar xonaki gullarning ayrim turlarini yoz mavsumida usti ochiq bog‘chaga, yerga ekishni ma’qul ko‘radilar. Ayniqsa, bir yillik o‘simlik ko‘p yillik o‘simliklar bilan bog‘cha shakliga moslashtirilib, boshqa o‘simliklar bilan rangi va gullariga uyg‘unlashtirishib ekilsa, bu bog‘ ko‘rkini yanada ochib yuboradi. Xona sharoitida o‘sirib parvarish qilinadigan gullar o‘z xususiyatidan kelib chiqib yorug‘likni sevuvchi, soyasevar va soyaga moslashuvchi turlarga bo‘linadi:

— yorug‘likni sevuvchi o‘simliklar yorug‘lik ko‘p tushadigan joyda yaxshi o‘sadi (masalan, geran, qo‘ngiroqcha, kaktus, afelyandra va h.k.).

— soyaga chidamli, moslashuvchan xonaki o‘simliklar yorug‘likda ham, soyada ham birdek o‘saveradi (masalan, aloe, plush, asparagus va boshqalar).

— soyasevar o‘simliklar yorug‘lik tik tushmaydigan, hatto yetarli bo‘lmagan soya joyda o‘zini tutib juda yaxshi o‘sadi (paporotnik, tradeskansiya, aspidistra, kliviya, ruskus va boshqalar).

O‘simliklarga oyna orqali tushadigan yorug‘lik tabiatdagi kabi yuqoridan, tik emas, yon tomondan tushishi kerak. Deraza oynasi yorug‘likning deyarli yarmini yutib, yarmini o‘tkazadi. Agar tuvakdagi gul deraza oynasidan 1 metrga uzoqlashtirilsa, yorug‘lik nuri kamayib, u 7,6 foizga tushib qoladi. Shunga ko‘ra yorug‘lik bir deraza oynasidan xonadagi o‘simliklarga bir xil tushadi deb bo‘lmaydi. Xonaga yorug‘lik tushishi kunning uzun-qisqaligiga ham bog‘liq. Shuning uchun kuzgi mavsumda taxminan 23 sentyabrdan so‘ng xonaki gul va o‘simliklarni qo‘zg‘atmasdan, qo‘sishma yorug‘lik berish mumkin bo‘lgan joyga ko‘chirish kerak. Bunda 20-40 Vt bo‘lgan lampalar yoqilib, qo‘sishma yorug‘lik beriladi.

Lampalar o‘simlik va gullarga 10-40 sm gacha uzoqlikda turishi lozim. Lampalar qorong‘i tusha boshlaganida yoqiladi va taxminan, 10-12 soatga yoqib

qo‘yiladi. Shu tariqa bahor mavsumigacha chiroq yoqish soati sekin-asta kamaytirib boriladi va mart oylarida to‘xtatiladi. Olimlarning ta’kidlashlaricha, ko‘pgina xonaki gul va o‘simpliklar xona mikroiqlimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ularda xona sharoitida tez ko‘payadigan zararli mikroorganizmlarni o‘ldiruvchi uchadigan fitonsidlar mavjud. Hatto shunday o‘simpliklar ham borki, ular kompyuterda ishlovchi, uy-ro‘zg‘orda qo‘llanadigan elektr asboblarni ko‘p ishlatadigan kishilarni elektromagnit maydoni ta’siridan saqlaydi (Masalan, kaktus, semizo‘t, kalanxoe va boshqalar). Xonaki gullar ochiq joyga ekilishidan avval ular ochiq havo sharoitiga va yorug‘likka o‘rgatilishi kerak. Buning uchun gul tuvaklari bir necha soatga hovli yo‘laklariga, ochiq deraza tokchalariga qo‘yiladi. Gullarning ochiq havoda turish vaqtini har kuni uzaytirib boriladi. Xonaki gullarni quyosh nuri to‘g‘ri tushadigan joyga qo‘yish yaramaydi, ular odatda uyning shimol tarafiga tushib turadigan soyaga, daraxt soyasi tushadigan joyga taxminan bir haftaga qo‘yiladi. Ana shundan keyingina tuvakdagi xonaki gullarni ochiq yerga o‘tqazish mumkin. Buning uchun yerda tuvak hajmidagi chuqur qazilib, gul tuvagi bilan shu joyga o‘tqaziladi. Ba’zi yosh xonaki gullarni (masalan araliya, geran, drasena, lyagustrum, fuksiya) yerga tuvaksiz ham o‘tqazish mumkin. Mavsum tugaganida, yozning so‘nggi kunlarida esa gullar yerdan kavlab olinib uzun ildizlari ozgina qirqiladi va tuvakka qayta o‘tqazib qo‘yiladi. Salqin tushishi bilan gul tuvaklari bilan xonaga deraza tokchalari yoki kishi xohishi va didiga qarab uy burchaklariga qo‘yiladi. Gultuvaklar qanday o‘lchamda bo‘lishi kerak? Bu savol ko‘pchilikni o‘ylantirishi tabiiy. Gullarni ekish, ko‘chirib o‘tqazishda gultuvaklarning ahamiyati nihoyatda katta. Ularni tanlayotganda o‘tqaziladigan o‘simplik xususiyatlarini, albatta, inobatga olish kerak. Agar gul chirmashib o‘sadigan bo‘lsa-yu, u o‘tqazilgan tuvak kichkina, ya’ni sayoz bo‘lsa, undagi tuproq gul uchun yetarli ozuqa bo‘lolmaydi. Qolaversa, tuvakning noto‘g‘ri tanlanishi oqibatida tuproq bijg‘ib ketishi va o‘simplikka zarar yetkazishi mumkin. Bahorda, o‘simpliklarning ayni o‘sish, ildiz berish pallasida, ular kuchli ozuqa talab qiladi, ildizi esa keng joyda o‘sadi. Shuning uchun gul va o‘simpliklarni mart-aprel oylarida ko‘chirib o‘tqazish kerak. Yana shuni ham yodda tutish kerakki, gul va o‘simplik ildizlari ko‘payib tuvak devoriga tegib qolganda, tuvakdagi tuproqning hammasini o‘rab olganda, albatta, ularni ko‘chirib o‘tqazish lozim. Buni payqash esa juda oson: o‘simplik ildizi tarvaqaylab ketganidan tuvak tagidagi teshikdan ham tomirlari chiqib ketgan bo‘ladi. Xonaki gullar uchun sopol, yog‘och, plastmassa tuvaklaridan foydalanish mumkin. Eng muhimi bu tuvaklarning tubida suv oqib chiqib ketishi uchun teshiklari bo‘lishi shart. Yangi sopol tuvaklar namlikni yaxshi saqlashi uchun, ular 1 soatga suvga solib qo‘yiladi. Agar tuvak oldin ishlatilgan bo‘lsa, uni issiq suvda sovunlab yuvish, so‘ng sodali suvda qaynatib, chayish talab etiladi. O‘simplikni ekish qoidasi quyidagicha: tuvak tubidagi teshikka qirrali tomoni yuqoriga qaratilib bir parcha sopol sinigi solinadi, ustidan yirik qum tashlanadi.

Ayrim kishilar qum o‘rniga ham sopol siniqlarini solishadi. Bu ham to‘g‘ri, lekin bu keyingi o‘tqazish vaqtida uchli sopol parchalarini ko‘chirayotganda barmoqlarni jarohatlash-ehtimolini kuchaytiradi. Yaxshisi, sopol parchalari o‘rniga mayda toshlar solish kerak. Eng ma’quli esa 1-2 sm qalinlikda yondirilgan kul bilan teshik usti yopiladi. Uning ustidan ozuqa zaxirasi sifatida quruq o‘g‘it sepiladi. So‘ng tuproq aralashmasi bilan tuvak to‘ldiriladi. Tuproqqa chap qo‘l bilan ushlagancha o‘simplik ildizidagi guvalasi bilan qo‘yiladi, o‘ng qo‘l bilan esa, tuvakdagi tuproq tekislanadi, ya’ni o‘simplik ildizlari yopiladi. O‘simplik yoki gul ildizi tuvak chetlaridan ozgina pastroqda joylashishi kerak, yo‘qsa ildiz ortiqcha namlikdan chirib ketishi mumkin. Tuvakdagi tuproq bir xil zichlikda joylashishi uchun tuvak tagi bilan stolga astagina uriladi. Tuvakni tuproq bilan zich qilib to‘ldirish ham yaramaydi. Bu o‘simplik uchun zarar. Ba’zi paytlarda gul va o‘simpliklar ildizidagi loyni almashtirishga to‘g‘ri keladi. Buning uchun tuvakdan olingan o‘simplik ildizidagi kesagi bilan iliq suv to‘ldirilgan idishga solib qo‘yiladi. So‘ng ildizda qolgan loylar suv sachratib yuviladi va o‘simplik tuvakka ekiladi. Bu usuldagagi ekish ishlaridan so‘ng o‘simplik barglariga, albatta, suvni sachratib purkab turish kerak. Yana bir eslatma: xom, yaxshi pishmagan sopol tuvaklar kulrang yoki och jigar rangda bo‘ladi. Urib ko‘rilganda ulardan bo‘g‘iq ovoz chiqadi. Pishiq sopol idishlar esa qora rangda bo‘ladi. Gul va o‘simpliklarni ekishda ularning ikkisidan foydalanmagan ma’qul. Plastmassa gultuvaklar uzoq vaqt xizmat qiladi. Faqat bunday idishdan foydalanganda suv chiqib ketish yo‘li qavatini qalinq qilish kerak. Lekin sopol idishlar suv ushslash, namlikni bir xil saqlash borasida plastmassa idishlardan afzalroq.

Xulosa shuki xona gullari biz insonlar uchun ekzotik zavq bag‘ishlab, xona havosaini tozalab beradi. Shunda ekan ularga olihida e’tibor berib, tanasidagi kichik o‘zgarishlarga ham diqqatli bo‘lish va shu o‘zgarishlar ortidan o‘simplikda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan kasalliklarga qarshi qarshi kurash choralarini ko‘rish kerak. Zotan tabiatning bu ajib ne’mati bir butun organizm sifatida, tanasidagi biologik jarayonlarni to‘g‘ri amalga oshishiga biz javobgarmiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘.Pratov, L.Shamsualiyeva, E.Sulaymonov "Botanika" Toshkent 2010.
2. G.S.Tursunbayeva, G.M.Duschanova, A.T.Abdullayeva "Botanika o‘simpliklar anatomiysi va morfologiyasi" Toshkent-2018.
3. G.S.Tursunbayeva, G.M.Duschanova, J.S.Sadinov "Botanika" Toshkent 2020.
4. Q. X. Xaydarov, Q. X. Xojimatov. O’zbekiston o‘simplilari. Toshkent 1992.
5. Husenov, B. (2022). Oqava suvlari va ularni tozalash usullari. *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali*, 2(2).